



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixojaga o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
BAROTOV UMIDJON MAHMUD O'G'LI	



XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI

Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna

Urganch RANCH texnologiya universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlarining joriy holati tahlil qilinib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни baholanadi. Tadqiqot 2019–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida olib borilib, unda taqqoslama, dinamik va strukturaviy tahlil usullari hamda institutsional yondashuv qo'llanildi. Natijalar kichik biznes faolligi asosan xizmatlar va savdo sektorlarida jamlanganini, ishlab chiqarish yo'nalishlarida esa nisbatan past darajada ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, hududiy notekislik mavjud bo'lib, u infratuzilma sifati, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va bozor sig'imi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari hududiy siyosatni takomillashtirish hamda kichik biznesni barqaror rivojlantirish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kichik biznes, hududiy rivojlanish, tadbirkorlik, bandlik, xizmatlar sohasi, ishlab chiqarish, investitsiya.

Аннотация. В данной статье проанализировано текущее состояние субъектов малого бизнеса в Хорезмская область и оценена их роль в региональном экономическом развитии. Исследование проведено на основе статистических данных за 2019–2024 годы с использованием сравнительного, динамического и структурного анализа, а также институционального подхода. Результаты показали, что активность малого бизнеса в основном сосредоточена в сферах услуг и торговли, тогда как в производственных отраслях она остается относительно низкой. Также выявлена территориальная неравномерность, обусловленная качеством инфраструктуры, доступом к финансовым ресурсам и емкостью рынка. Полученные результаты имеют важное научное и практическое значение для совершенствования региональной политики и устойчивого развития малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, региональное развитие, предпринимательство, занятость, сфера услуг, производство, инвестиции.

Annotation. This article analyzes the current state of small business entities in Khorezm Region and evaluates their role in regional economic development. The study is based on statistical data from 2019 to 2024 and employs comparative, dynamic, and structural analysis methods, as well as an institutional approach. The findings indicate that small business activity is mainly concentrated in the service and trade sectors, while its presence in production sectors remains relatively low. The study also reveals regional disparities, explained by infrastructure quality, access to financial resources, and market capacity. The results provide important theoretical and practical implications for improving regional policy and ensuring sustainable development of small businesses.

Keywords: small business, regional development, entrepreneurship, employment, service sector, production, investment.

KIRISH

Kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlikni oshirish hamda bozor talabiga tez moslashish imkoniyati bilan zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi ko'plab tadqiqotlarda asoslab berilgan [1].

Shu bilan birga, kichik biznes rivojlanishi turli omillarga, xususan, institutsional muhit, infratuzilma darajasi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va bozor sharoitlariga bog'liq [2]. Ushbu omillarning hududlar kesimida turlicha namoyon bo'lishi iqtisodiy rivojlanishda nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi.

Xorazm viloyati o'zining iqtisodiy tarkibi, geografik joylashuvi va tarmoq ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Shu sababli, ushbu hududda kichik biznes rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.



Mazkur tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlarining joriy holatini baholash va ularning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. David B. Audretsch tadqiqotlarida tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi [1].

Thorsten Beck va Asli Demircuc-Kunt tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklovlar asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi [2].

Hududiy iqtisodiyot sohasida Alexander Granberg infratuzilma va iqtisodiy makonning rivojlanish darajasi hududiy farqlarni belgilashini ta'kidlaydi [3]. Shuningdek, Michael E. Porter raqobatbardoshlik va klasterlashuv omillarining ahamiyatini asoslab bergan [8].

Biroq, mavjud tadqiqotlarning aksariyati makro darajada olib borilgan bo'lib, hududiy kesimdagi empirik tahlillar yetarli darajada yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi hududiy iqtisodiyot va institutsional tahlil yondashuvlarini uyg'unlashtirishga asoslandi. Kichik biznes subyektlarining joriy holatini baholashda rasmiy statistik ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi statistika tizimida e'lon qilinadigan hududiy ko'rsatkichlar, kichik tadbirkorlik faoliyatini aks ettiruvchi jamlanma indikatorlar hamda tarmoqlar bo'yicha tuzilmaviy ma'lumotlar qabul qilindi.

Empirik tahlil mantig'i shundan iborat bo'ldiki, kichik biznesning holati bir vaqtning o'zida miqdoriy ko'lam, tarmoq tarkibi va hududiy konsentratsiya orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli dinamik tahlil, taqqoslash va strukturaviy tahlil usullari birgalikda qo'llanildi.

Dinamik tahlil kichik biznes ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarish yo'nalishini aniqlashga xizmat qildi va u orqali o'sishning barqarorligi hamda keskin tebranishlar mavjudligi baholandi. Taqqoslama tahlil Xorazm viloyati ichida tuman va shaharlar kesimida, shuningdek, viloyat ko'rsatkichlarini respublika o'rtacha tendensiyalari bilan qiyoslash imkonini berdi. Ushbu yondashuv hududiy notekislikni faqat fakt sifatida emas, balki farqlanish mexanizmlarini aniqlash uchun asos sifatida talqin qilishga yordam berdi.

Strukturaviy tahlil kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha taqsimotini, ayniqsa savdo va xizmatlar hamda ishlab chiqarish yo'nalishlari o'rtasidagi nisbatlarni aniqlashga qaratildi. Bu tanlov kichik biznesning hududiy iqtisodiyotga qo'shadigan qiymati va barqaror bandlikka ta'siri tarmoq tarkibiga sezilarli darajada bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar bilan asoslandi [1; 3].

Metodologik asos sifatida institutsional yondashuvdan foydalanish kichik biznes subyektlarining faolligi faqat bozor signallari bilan emas, balki ruxsat-taomillar soddaligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, logistika va kommunal infratuzilma sifati bilan ham belgilanadi degan g'oyani hisobga olish imkonini berdi [2; 4]. Shu nuqtali nazardan, maqolada ayrim natijalar "sharoit omillari" va "natija ko'rsatkichlari" o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish sifatida talqin qilindi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda mantiqiy umumlashtirish, guruhlash va analitik interpretatsiya usullari qo'llanilib, xulosalar faqat bitta indikatorga tayanib emas, balki ko'rsatkichlar majmuasining o'zaro mosligi asosida shakllantirildi. Ushbu usullar tanlovi tadqiqot maqsadiga mos bo'lib, u kichik biznesning joriy holatini ko'p omilli hodisa sifatida ochib berishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyati umumiy iqtisodiy jarayonlarda sezilarli o'rin tutishini, biroq ushbu faollikning tarmoq va hududlar kesimida bir xil taqsimlanmaganini ko'rsatdi. Birinchi navbatda, kichik biznesning joriy holati viloyat ichki bozoriga yo'naltirilgan xizmatlar va savdo segmentlarida nisbatan yuqori faollik bilan tavsiflanadi. Bu holat kichik kapital bilan tez aylanuvchi faoliyat turlarining ustunligi, iste'mol talabi bilan bevosita bog'liqlik hamda kirish to'siqlarining nisbatan pastligi bilan izohlanadigan empirik tendensiya sifatida qayd etildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish yo'nalishida, ayniqsa qayta ishlash va ko'proq texnologik intizom talab qiladigan segmentlarda kichik biznesning ulushi va faolligi nisbatan cheklangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kichik biznesning tarmoq tarkibidagi bunday nisbat hududda qiymat zanjirlarining chuqurlashuvi hamda barqaror mahsulot diversifikatsiyasiga oid salohiyatni to'liq ishga solishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ikkinchi muhim natija hududiy notekislik bilan bog'liq. Viloyat markazi va transport hamda xizmatlar infratuzilmasi nisbatan rivojlangan hududlarda kichik biznes subyektlarining zichligi, bozor aloqalari faolligi va xizmatlar turlarining kengligi yuqoriroq ekani kuzatildi. Aksincha, infratuzilma yuklamasi yuqori, logistika masofalari katta yoki bozor sig'imi nisbatan tor bo'lgan hududlarda kichik biznes ko'proq mikro ko'lamda, o'zini o'zi band qilishga yaqin shakllarda namoyon bo'ladi. Bu natija kichik biznesning "son jihatidan ko'pligi"


bilan “iqtisodiy samaradorligi va o’sish salohiyati” o’rtasida to’liq moslik mavjud emasligini ko’rsatadi: ayrim hududlarda subyektlar soni ortishi mumkin, biroq ularning mahsulot va xizmatlar bo’yicha qiymat yaratish darajasi, bandlikning barqarorligi hamda investitsion faolligi yetarlicha yuqori bo’lmisligi ehtimoli saqlanib qoladi.

Xorazm viloyatida kichik biznes asosan xizmatlar va savdo sohalarida faol. Ixtisoslashuv, hududiy notekislik, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati hamda infratuzilma farqlari subyektlarning o’sish salohiyatini belgilaydi [8]. Ishlab chiqarish yo’nalishida esa sezilarli cheklovlar mavjud [9].

Uchinchi natija moliyalashtirish va resurslarga kirish sharoitlarining kichik biznes joriy holatiga sezilarli ta’sirini tasdiqlaydi. Tahlil mantig’iga ko’ra, kichik biznes subyektlarining kengayishi ko’pincha aylanma mablag’lar barqarorligi va kredit resurslari shartlarining moslashuvchanligiga bog’liq. Xorazm viloyati sharoitida esa aynan ishlab chiqarish va qayta ishlash kabi yo’nalishlarda boshlang’ich investitsiya talabi yuqori bo’lgani sababli moliyaviy cheklovlar kuchliroq seziladi. Natijalar, shuningdek, kredit va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yuqoriroq bo’lgan hududlarda kichik biznesning formal sektorda faoliyat yuritishi va ish o’rinlari yaratish salohiyati nisbatan kengroq ekanini ko’rsatadi. Bu yerda kuzatiladigan asosiy empirik xulosa shundan iboratki, moliyalashtirish sharoitlaridagi farqlar nafaqat subyektlar sonini, balki ularning tarmoq tanlovi va o’sish trayektoriyasini ham shakllantiradi.

To’rtinchi natija kichik biznesning bandlik bilan bog’liq funksiyasiga taalluqlidir. Tahlil kichik biznesning, ayniqsa, xizmatlar va savdo segmentlarida ish bilan ta’minlashda muhim rolini ko’rsatdi, biroq bu bandlikning sifat ko’rsatkichlari — ya’ni mavsumiylikka moyillik, daromadlarning barqarorligi va mehnat unumdorligi — hududiy sharoitga qarab farqlanishini ham aniqladi. Xizmatlar sektoridagi kichik biznes ko’pincha tezkor ish o’rni yaratadi, lekin ishlab chiqarish yo’nalishidagi kichik biznes nisbatan kamroq ish o’rni yaratgan taqdirda ham yuqoriroq malaka talab qilishi va uzoqroq muddatli bandlikni shakllantirishi mumkinligi qayd etildi. Bu natija kichik biznesni rivojlantirish siyosatida “sonni ko’paytirish” va “sifatli o’sishni ta’minlash” maqsadlari o’rtasidagi muvozanat zarurligini ko’rsatadi.

Beshinchi natija sifatida tadbirkorlik muhitining institutsional komponentlari, ya’ni ruxsat-taomillar, xizmat ko’rsatish infratuzilmasi va kooperatsiya tarmoqlari mavjudligi kichik biznesning joriy holatiga bevosita bog’liqligi tizimlashtirildi. Xususan, ishlab chiqarish va qayta ishlash segmentlarida kooperatsion aloqalar yetarlicha rivojlanmagan bo’lsa, kichik subyektlar xomashyo ta’minoti, sifat standartlari va sotuv kanallarida yuqori tranzaksiya xarajatlariga duch keladi. Natijada ularning o’sish sur’ati sekinlashadi va xavflar ortadi. Tahlil natijalari aynan ushbu tranzaksiya xarajatlari omili kichik biznesning hududiy notekisligini kuchaytiruvchi muhim mexanizmlardan biri ekanini ko’rsatadi.



1-rasm. Tarmoqlar bo’yicha taqsimot

Olingan natijalar kichik biznesning Xorazm viloyatida ko’proq xizmatlar va savdoga yo’naltirilishi bo’yicha aniqlangan tendensiya xalqaro adabiyotlarda qayd etiladigan umumiy qonuniyat bilan mos keladi: kichik firmalar ko’pincha kirish to’siqlari past va aylanma tez bo’lgan bozorlarda tezroq ko’payadi, biroq bu ularning uzoq muddatli unumdorlik o’sishini avtomatik tarzda ta’minlamaydi [1]. Ushbu manbada kichik biznesning iqtisodiy o’sishga qo’shadigan hissasi tarmoq tarkibi va mahsuldorlik dinamikasi orqali farqlanishi ta’kidlanadi; Xorazm viloyati bo’yicha tahlil ham shuni ko’rsatadiki, subyektlar soni o’sishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish yo’nalishida barqaror qiymat yaratish mexanizmlari mustahkamlanmasa, hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi cheklanishi mumkin.

Bunda muhim ilmiy jihat shundaki, tarmoq tarkibi hududning resurs profili va bozor sig’imiga moslashgan holda shakllanadi. Shuning uchun ishlab chiqarish segmentini kuchaytirish faqat ma’muriy rag’batlar bilan emas, balki kooperatsiya va infratuzilma zanjirlarini yaxlit rivojlantirish bilan bog’liq bo’lishi kerak.

Moliyalashtirish cheklovlari bo’yicha natijalar Thorsten Beck va Asli Demircuc-Kunt tomonidan kichik va



o'rtta biznesning kredit bozorlarida informatsion nomuvofiqlik hamda garov talablari sababli ko'proq cheklanishi haqidagi dalillar bilan uyg'unlashadi [2]. Xorazm viloyati sharoitida bu cheklovlar, ayniqsa, ishlab chiqarish va qayta ishlash yo'nalishlarida kuchliroq sezilishi aniqlangani mazkur nazariy pozitsiyani hududiy kontekstda tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, natijalar shuni ham ko'rsatadiki, moliyaviy kirish imkoniyati yaxshilanganda kichik biznesning formal sektorda faoliyat yuritishi va o'sish trayektoriyasi barqarorroq bo'ladi. Bu holat kichik biznesni qo'llab-quvvatlash instrumentlari dizaynida faqat kredit hajmini oshirish emas, balki shartlarning tarmoq xususiyatlariga moslashuvi, maslahat va moliyaviy savodxonlik komponentlarining kuchaytirilishi zarurligini anglatadi. Demak, moliyalashtirish omili natijalar tizimida mustaqil determinant emas, balki institutsional muhit bilan o'zaro ta'sirda ishlaydigan mexanizm sifatida qaralishi ilmiy jihatdan asosli.

Hududiy notekislik bo'yicha natijalar Alexander Granberg tomonidan ishlab chiqilgan aglomeratsion ustunliklar va tranzaksiya xarajatlari yondashuvlari bilan izohlanishi mumkin. Granberg hududlar rivojlanishida infratuzilma va iqtisodiy makonning "zichligi" resurslardan foydalanish samaradorligini belgilashini ta'kidlaydi [3]. Xorazm viloyati bo'yicha tahlilda ham infratuzilma rivojlangan hududlarda kichik biznes faoliyati ko'lami va diversifikatsiyasi yuqoriroq ekani qayd etildi.

Shu bilan birga, Sergey Kuznetsovning hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligi bo'yicha yondashuvida mahalliy ixtisoslashuv va institutlar moslashuvchanligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi [4]. Xorazm sharoitida ham bir xil qo'llab-quvvatlash choralari turli hududlarda turlicha natija berishi mumkinligi aynan institutlar va bozor sig'imi farqlari bilan bog'liqligi aniqlangan. Bu esa hududiy siyosatni "universal" yondashuvdan ko'ra "differensial" yondashuvga yaqinlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan mos keladi [10–12]: kirish to'siqlari past va tez aylanadigan bozorlarda kichik biznes tez o'sadi, biroq barqaror o'sish uchun infratuzilma, moliyalashtirish va kooperatsiya tarmoqlari zarur. Hududiy siyosatda differensial yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston olimlarining kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha ishlari ko'pincha islohotlar natijadorligi, biznes muhitini yaxshilash va bandlik masalalarini alohida yo'nalishlarda yoritadi. Yo. Abdullayevning tadbirkorlik muhitini institutsional jihatdan takomillashtirish bo'yicha qarashlarida ruxsat-taomillar va xizmat ko'rsatish tizimi sifatining iqtisodiy faollikka ta'siri alohida ajratib ko'rsatiladi [5]. Xorazm bo'yicha natijalarda institutsional komponentlarning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish orqali kichik biznesning o'sish salohiyatini oshirishi qayd etilgani ushbu pozitsiyani empirik mantiq bilan to'ldiradi.

N. Yusupovning hududiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish omillari bo'yicha tahlilida infratuzilma va investitsion muhit hududiy tafovutlarning asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi [6]. Mazkur maqoladagi natijalar aynan infratuzilma va moliyalashtirishning birgalikdagi ta'siri kuchli ekanini ko'rsatib, ushbu ilmiy yo'nalishga qo'shimcha dalillar beradi.

Shu bilan birga, muhokama shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning xizmatlar sektorida ko'proq jamlanishi bandlikni tez oshirsa-da, uzoq muddatli mahsuldorlik va eksportbop ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish uchun kooperatsiya zanjirlari va texnologik yangilanish omillari yetarlicha integratsiyalanishi lozim.

Xalqaro amaliy adabiyotlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarasi ko'pincha biznes muhitining sifati va raqobat institutlariga bog'liqligi ko'rsatiladi [1; 2]. Xorazm viloyati bo'yicha natijalarni shu doirada talqin qilganda, kichik biznesning joriy holati "o'sish uchun yetarli shartlar" va "o'sishni ro'yobga chiqaruvchi mexanizmlar" o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Ya'ni subyektlar sonining ko'payishi muhim, biroq kooperatsiya, logistika, moliyaviy xizmatlar sifati va inson kapitali bilan uyg'unlashmaguncha bu ko'payish yuqori qo'shilgan qiymatga aylanishi sekinlashadi.

Shuning uchun konseptual xulosa sifatida qayd etish mumkinki, kichik biznesni hududiy rivojlanish drayveriga aylantirish uchun tarmoq tarkibini muvozanatlashtirish va institutlar samaradorligini oshirish o'zaro to'ldiruvchi yo'nalishlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlarining joriy holati tarmoq va hududiy kesimda tizimli tahlil qilinib, ularning faolligi xizmatlar va savdo segmentlarida yuqoriroq, ishlab chiqarish va qayta ishlash yo'nalishlarida esa nisbatan cheklanganligi asoslandi. Hududiy notekislikning mavjudligi aniqlanib, markaz va infratuzilmasi rivojlangan hududlarda kichik biznesning diversifikatsiyasi hamda o'sish salohiyati yuqoriroq ekani ko'rsatildi.

Moliyalashtirishga kirish imkoniyati, infratuzilma sifati va kooperatsiya aloqalari kichik biznesning nafaqat miqdoriy ko'lamini, balki tarmoq tanlovi va barqaror o'sish trayektoriyasini belgilovchi muhim determinantlar sifatida umumlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy hissasi kichik biznesni hududiy iqtisodiyot kontekstida ko'p omilli hodisa sifatida izohlashdan, amaliy hissasi esa hududiy siyosatda differensial yondashuv zarurligini asoslab berishdan iborat.



Kelgusidagi izlanishlar kichik biznesning mahsuldorlik ko'rsatkichlari, qiymat zanjirlaridagi ishtiroki va innovatsion faoliyati bo'yicha mikro darajadagi ma'lumotlarga tayangan holda chuqurlashtirilgan tahlillarni talab qiladi.

Amaliy tavsiyalar:

- tarmoq tarkibini muvozanatlashtirish;
- institutsional samaradorlikni oshirish;
- moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. David B. Audretsch. Entrepreneurship and Economic Growth. — Oxford; New York: Oxford University Press, 2007. — 176 p.
2. Thorsten Beck, Asli Demircug-Kunt. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint. — Washington, DC: World Bank, 2006. — 44 p.
3. Александр Гранберг. Основы региональной экономики. — Москва: ГУ ВШЭ, 2004. — 495 с.
4. Сергей Кузнецов. Региональная экономика и управление. — Санкт-Петербург: Питер, 2012. — 304 с.
5. A. A. Abdullayev. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. — 220 b.
6. U. S. Yusupov. Hududiy iqtisodiy rivojlanish va investitsiya muhiti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 200 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. — Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi, 2023. — 180 b.
8. Michael E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990. — 855 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>